

RINOPLASTIKA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI

Abdullayev Jamshid Djamilovich

*Yuridik fanlar bo'yicha falsafa fanlari
doktori (PhD), "Adliya a'lochisi".*

jamshidb003fb@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasining huquqiy tabiati, uning obyekti va subyektlari, shuningdek, mazmuni hamda boshqa shartnomalardan farqlovchi o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa sohaviy qonunchilik hujjatlari asosida rinoplastika tibbiy xizmatlarining shartnomaviy asosda ko'rsatilishi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, shifokorlarning axloqiy va huquqiy javobgarligi masalalari yoritilgan. Rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi oldindan aniq kafolatlangan natijaga emas, balki malakali tibbiy harakatga asoslanganligi, tibbiy sir va etik tamoyillarning o'rni alohida ko'rib chiqilgan. Maqola rinoplastika sohasidagi huquqiy munosabatlarni ilmiy tahlil qilish, shuningdek tibbiy amaliyotiga oid shartnomaviy yondashuvlarni chuqur o'rganish uchun xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi, rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaning obyekti, subyekti, mazmuni, Fuqarolik kodeksi, estetik va rekonstruktiv tibbiyot, moddiy zarar, ma'naviy zarar, O'zbekiston Respublikasida tibbiy xizmat ko'rsatish sohasidagi qonunchilik.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir shaxsning salomatlikka bo'lgan huquqlarini kafolatlaydi: "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega"¹. Demak, davlat har bir jismoniy shaxsning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyadan tashqari boshqa maxsus qonun hujjatlarida ham aholining salomatligi masalasi huquqiy kafolatlangan. Xususan, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunida: "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning sog'liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash;

fuqarolarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 2023. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish”².

Ma’lumki, rinoplastika – burun shaklini yoki funksiyasini jarrohlik yo‘li bilan o‘zgartirish maqsadida estetik va rekonstruktiv tibbiyot kesishgan nuqtada joylashgan murakkab tibbiy aralashuv hisoblanadi. Boshqa bir qarash bo‘yicha rinoplastika — bu burunning shakli va hajmini o‘zgartirish, shuningdek, nafas olish funksiyasini yaxshilash yoki tiklash uchun o‘tkaziladigan estetik va funksional jarrohlik amaliyotidir. Ushbu tibbiy xizmat ko‘rsatish amaliyoti jarayonida tibbiy amaliyot yo‘li bilan burun ko‘prigi, uchi, kengligi va septum muammolarini tuzatish, tug‘ma nuqsonlar yoki jarohatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun qo‘llaniladi. Turkiya davlatiga oid manbalarda tibbiy xizmatning bu turiga nisbatan shunday izoh beriladi: “Rinoplastika kabi kosmetik jarrohlik muolajalarida bemor va jarroh o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar ko‘pincha “mehnat shartnomasi” bo‘yicha tasniflanadi. Bu yerda tibbiy tashkilot shartnoma asosida kelishilgan estetik natijani berishga majburdir. Ushbu shartnoma rejimida javobgarlik nafaqat beparvolikdan, balki va’da qilingan natijaga erisha olmaganlikdan ham kelib chiqishi mumkin va aralashuvdan oldin bemordan asosli rozilik olinishi kerak”³.

Mazkur tibbiy xizmatni ko‘rsatish jarayonida bemor (buyurtmachi) va tibbiyot muassasasi (ijrochi) o‘rtasida tuziladigan tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi fuqarolik-huquqiy majburiyatlar tizimida alohida o‘rin tutadi. Renoplastika bo‘yicha shartnoma odatda pullik tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi Fuqarolik kodeksining xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi huquqiy normalari, sog‘liqni saqlash to‘g‘risidagi qonunchilik hamda iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga oid qoidalar bilan tartibga solinadi. “Pullik tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi, jumladan estetik plastik jarrohlik xizmatlari xususan, rinoplastika haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomalariga kiradi, chunki ijrochi – tibbiy tashkilot buyurtmachiga ma’lum shartlar asosida va haq to‘lash evaziga xizmat ko‘rsatishni o‘z zimmasiga oladi”⁴. Demak, tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi aktual masala hisoblanadi.

Rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi fuqarolik huquqiy tabiatiga ko‘ra konsensual, haq evaziga tuziladigan va ikki tomonlama majburiyat bajarilishiga oid shartnoma hisoblanadi. Uning o‘ziga xosligi shundaki, bu yerda ijrochi aniq natijani masalan, “ideal shakldagi burun” bilan yakunlanishini kafolatlamaydi. Balki

² O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, 128-modda; 1999-y., 5-son, 124-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son; 31.05.2024-y., 03/24/928/0384-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son; 17.12.2025-y., 03/25/1102/1173-son; 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son

³ https://www.en.istlegal.com/aesthetic-malpractice-in-turkish-law.html?utm_source=chatgpt.com

⁴ Е.А. Исаковна Дадашева, “Договор возмездного оказания медицинских услуг” // Евразийский научный журнал, № 6 (2019)

tibbiyot fanining zamonaviy yutuqlari va klinik protokollarga muvofiq, zarur professional harakatlarni amalga oshirish majburiyatini oladi. Shu bois rinoplastika shartnomasi ko‘pincha “natijaga emas, balki lozim darajadagi sa’y-harakatga qaratilgan majburiyat” sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa estetik operatsiyalarda kutilgan natijaning subyektivligi mazkur shartnomaning asosiy xususiyatlaridan biridir. Bundan tashqari rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish natijasi bilan bog‘liq psixologik jihatlari ham mavjud.

Rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasining axborot berish va ongli rozilik instituti masalasi juda muhim. Renoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasining eng muhim elementlaridan biri — bemorning ixtiyoriy, ongli roziligi (informed consent)dir. “Pullik asosda ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar bo‘yicha munosabatlarning huquqiy tabiati fuqarolik-huquqiy shartnoma sifatida tasniflanadi, uning doirasida ijrochi moddiy (ashyoviy) ifodaga ega bo‘lmagan xizmatlarni haq evaziga ko‘rsatish majburiyatini oladi”⁵. Shu ma’noda, tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasining mazkur turini oldindan kafolatlab bo‘lmaydi.

Rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasining tibbiy tashkilot buyurtmachiga quyidagi ma’lumotlarni to‘liq va tushunarli shaklda taqdim etishi shart:

- rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi operatsiyaning mohiyati va bosqichlari;
- rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi jarayonidagi ehtimoliy asoratlari va xavflari;
- rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi jarayonidagi muqobil davolash usullari;
- rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi jarayonidagi reabilitatsiya muddati va cheklovlar;
- rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasidan kutilayotgan natijaning ehtimoliy xarakteri.

Rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi ixtiyoriy va ongli rozilik yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozim. Mazkur hujjat shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. Dunyo davlatlaridagi mavjud sud amaliyotlari asosida axborot yetarli darajada berilmagan taqdirda, bemorning roziligi haqiqiy deb topilmasligi mumkinligi faktini kuzatdik.

Rinoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi predmeti aniqligi va estetik kafolatlangan bo‘lishi lozim. Aksariyat tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarida fuqarolik huquqiy shartnomasi predmeti aniq belgilanmaydi. Renoplastika tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasida xizmat predmeti aniq ifodalanishi zarur. Mazkur

⁵ По договору оказания услуг одна сторона обязуется оказать услуги другой стороне (клиенту) на определённых условиях и за вознаграждение.” // Евразийский юридический журнал № 3 (190) 2024, https://crimescience.ru/wp-content/uploads/2016/04/Block_3-190-2024_NEW5-1.pdf?utm_source=chatgpt.com

masalada fikrimizni huquqiy asoslantiradigan bo'lsak, unda quyidagilar ifodalanishi kerak:

Birinchidan, bajariladigan jarrohlik aralashuvi turi xususan, ochiq yoki yopiq usulda tibbiy amaliyot amalga oshirilishi;

Ikkinchidan, rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish rekonstruktiv yoki estetik maqsad bilan qilinayotganligi;

Uchinchidan, rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida qo'shimcha manipulyatsiyalar masalan, septoplastika ko'rsatililishi maqsadga muvofiq.

Yuqorida biz ma'lumot bergan masalalar huquqshunoslar tibbiy xizmat ko'rsatish uchun ahamiyatsizdek ko'rinishi mumkin, ammo keyingi paytlarda rinoplastika tibbiy xizmati masalasida tarqalayotgan ommaviy axborot nashrlarida "Chilonzor tuman sudida o'zboshimcha plastik operatsiyalar o'tkazib, fuqarolarga og'ir tan jarohati yetkazgan er-xotin kosmetologlar ishi ko'rib chiqildi"⁶gi xabarlar mazkur fikrimizni ilmiy asoslaydi.

Shuningdek, rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish tibbiy amaliyotlarida va estetik operatsiyalarda bemorning subyektiv xoxishlari muhim ahamiyatga ega. Shu bois ushbu tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarida kutilgan natija "taxminiy", "individual anatomik xususiyatlarga bog'liq" ekani alohida qayd etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarining yana bir muhim jihatlaridan biri bu turdagi tibbiy xizmatning sifat talablari va javobgarlik masalalari hisoblanishi xech kimga sir emas. Jahon mamlakatlari tibbiy xizmatni huquqiy tartibga solish vositalarini o'rganishlar natijasida rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarida xizmatning sifati bir qancha xususiyatlar bilan belgilanishi qayd qilingan. Jumladan, bu omillarga amaldagi klinik standart va protokollarga muvofiqlik masalasi, tibbiy amaliyot jarayonida sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish masalasi, tibbiy amaliyotni malakali mutaxassis tomonidan bajarilishi va boshqa masalalar hisoblanadi.

Agar rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarida ko'zda tutilgan tibbiy amaliyot – operatsiya jarayonida shifokor tomonidan kasbiy xato ya'ni – medical malpractice sodir etilishi hamda bu tibbiy xatolik bevosita buyurtmachi (bemor)ga zarar yetkazsa, tibbiy tashkilot yohud ijrochi fuqaro-huquqiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Biroq bu tibbiy xatolikni va zararli ta'sirni huquqiy baholash yetarlicha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu rivojlanayotgan davlatlarda tibbiy huquqiy madaniyat bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarida huquqiy javobgarlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

⁶ <https://t.me/antikorrusz>, <https://kun.uz/kr/53465946>, <https://youtu.be/TVOQwOPQtYg?si=fiQl9L9xSy1FHI8n>, <https://qalampir.uz/n/131088>

- tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida yetkazilgan moddiy zararni qoplash;
- tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida ma'naviy zarar uchun kompensatsiya;
- tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida ayrim hollarda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik bilan ham yakunlanishi mumkin.

Biroq rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarida shuni ham belgilash lozimki, mazkur turdagi tibbiy amaliyotlarning o'ziga xos xavflari mavjud bo'lib, ular oldindan ogohlantirilgan va tibbiy jihatdan muqarrar bo'lgan asoratlar uchun tibbiy tashkilot – ijrochi buyurtmachi – bemor oldida javobgar bo'lmashligi masalasini ham huquqiy asoslantirish lozim.

Rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarida tibbiy sir va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish masalasi ham juda muhim hisoblanadi. Rinoplastika tibbiy xizmati ko'pincha estetik sabablar bilan amalga oshirilgani sababli, buyurtmachi – bemor shaxsiy hayoti daxlsizligi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda tibbiy tashkilot ta'minlashi shart bo'lgan bir qancha faktorlar mavjud. Xususan, rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish bemorning tashxis va operatsiya haqidagi ma'lumotlarini sir saqlashi, buyurtmachining shaxsiyatiga tegishli foto va videomateriallardan faqat bemorning yozma roziligi bilan foydalanishi, buyurtmachi –bemorning shaxsiy ma'lumotlarni qonunchilikka muvofiq himoya qilish va boshqa shu kabi muhim jihatlarni nazarda tutishi kerak.

Rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarining narx va hisob-kitob shartlari masalasi ham muhimdir. Barchamizga ma'lumki, renoplastika, odatda haq evaziga bajariladigan tibbiy amaliyot xizmat turi hisoblanadi. Taraflar imzolagan shartnomada quyidagilar ko'rsatilishi maqsadga muvofiq:

birinchidan, tibbiy amaliyot – operatsiya qiymati;

ikkinchidan, tibbiy xizmat bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar jumladan, anesteziya, statsionar yotish, dori vositalari;

uchinchidan, rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish to'lov tartibi oldindan to'lov, bo'lib-bo'lib to'lash va boshqa;

to'rtinchidan, rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish qaytarish shartlari – tibbiy amaliyot operatsiyadan voz kechish holatlari. Rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarida narxning bir tomonlama o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi, ammo qonun hujjatlari asosida istisnolar qo'llanishi mumkin.

Tibbiy xizmat shartnomalarining tuzish bilan bir qatorda o'zgartirish va bekor qilish masalalarini ham tahlil qilish kerak. Rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarini bekor qilish va o'zgartirishning huquqiy asoslarini ham ilmiy tahlil qilish maqsadga muvofiq. Buyurtmachi (bemor) rinoplastika tibbiy amaliyot – operatsiya boshlanguniga qadar shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega. Biroq, tibbiy tashkilot – ijrochining buyurtmachi uchun amalda qilgan xarajatlari qoplanishi mumkin. Tibbiy tashkilot – ijrochi agar buyurtmachi (bemor)ning sog'lig'i

operatsiyani o'tkazishga qarshi ko'rsatmalarni aniqlasa, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasini bajarishdan bosh tortishi mumkin.

Rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasining o'ziga xosliklari masalasida yakuniy xulosa qiladigan bo'lsak, rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi murakkab huquqiy tabiatga egadir. Ushbu tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari tibbiy, fuqarolik-huquqiy va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish normalarining uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Rinoplastika tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasining o'ziga xos jihatlari tibbiy natijaning subyektivligi, ixtiyoriy rozilikning hal qiluvchi ahamiyati, tibbiy professional sa'y-harakat majburiyati, tibbiy jihatdan yuqori xavf manbai bilan bog'liqlik, tibbiy amaliyotning estetik omilning ustuvorligi va boshqa shu kabi omillarda namoyon bo'ladi. Shu sababli rinoplastika sohasida tuziladigan tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari batafsil, aniq va qonunchilik talablariga to'liq mos ravishda rasmiylashtirilishi buyurtmachi (bemor) hamda tibbiyot muassasasining huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishning asosiy kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 2023. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 9-son, 128-modda; 1999-y., 5-son, 124-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son; 31.05.2024-y., 03/24/928/0384-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son; 17.12.2025-y., 03/25/1102/1173-son; 30.12.2025-y., 03/25/1109/1241-son
3. https://www.en.istlegal.com/aesthetic-malpractice-in-turkish-law.html?utm_source=chatgpt.com
4. Е.А. Исаковна Дадашева, "Договор возмездного оказания медицинских услуг" // Евразийский научный журнал, № 6 (2019)
5. По договору оказания услуг одна сторона обязуется оказать услуги другой стороне (клиенту) на определённых условиях и за вознаграждение." // Евразийский юридический журнал № 3 (190) 2024,
6. https://crimescience.ru/wp-content/uploads/2016/04/Block_3-190-2024_NEW5-1.pdf?utm_source=chatgpt.com
7. <https://t.me/antikorrusz>,
8. <https://kun.uz/kr/53465946>,
9. <https://youtu.be/TVOQwOPQtYg?si=fiQl9L9xSy1FHI8n>,
10. <https://qalampir.uz/n/131088>